

UDK: 811.512.133'28

Hasanov Abdumannon Majidovich,
O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Tel: 94 416-88-04, e-mail: abdumannon293167@mail.ru

SHEVA SO'ZLARINI IZOHLI LUG'ATGA KIRITISH MASALALARI HAQIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiy tilining leksik me'yorlarini tavsiflovchi izohli lug'atlarga dialektal so'zlarning kiritilishi yuzasidan munosabat bildirilgan. Sheva so'zlarining me'yoriy lug'atga kiritish borasidagi leksikografik tajribalar o'rganilgan va ularning umumiy mezonlari tavsiflangan. Mazkur masala yuzasidan orttirilgan tajribalar tahlil qilingan va ularning ayrim jihatlari yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: leksika, leksik me'yor, sheva, izohli lug'at, dialektal so'z, adabiylashuv, leksik taraqqiyot.

К ВОПРОСАМ ВКЛЮЧЕНИЯ ДИАЛЕКТНЫХ СЛОВ В ТОЛКОВЫЙ СЛОВАРЬ

Хасанов Абдуманнон Маджидович,
Старший научный сотрудник АН Уз Институт узбекского языка,
литературы и фольклора, кандидат филологических наук (PhD).
Телефон: 94 416-88-04, e-mail: abdumannon293167@mail.ru

Абстрактный. В данной статье речь идет о включении диалектных слов в толковые словари, описывающие лексические нормы узбекского

литературного языка. Изучены лексикографические эксперименты по включению диалектных слов в нормативный словарь и описаны их общие критерии. Был проанализирован опыт, накопленный по данному вопросу, и сделаны предложения по некоторым его аспектам.

Ключевые слова: лексика, лексический стандарт, диалект, толковый словарь, диалектное слово, литературизация, лексическое развитие.

ON THE ISSUES OF INCLUDING DIALECT WORDS IN AN EXPLANATORY DICTIONARY

Khasanov Abdumannon Majidovich,

Senior researcher of the Academy of Sciences of Uzbekistan Institute of the Uzbek language, literature and folklore, candidate of philological sciences (PhD).

Phone: 94 416-88-04, e-mail: abdumannon293167@mail.ru

Abstract. This article deals with the inclusion of dialect words in explanatory dictionaries that describe the lexical norms of the Uzbek literary language. Lexicographic experiments on the inclusion of dialect words in the standard dictionary are studied and their general criteria are described. The experience gained on this issue was analyzed and proposals were made on some of its aspects.

Key words: vocabulary, lexical standard, dialect, explanatory dictionary, dialect word, literariness, lexical development.

Kirish

O'zbek adabiy tilining leksik me'yorlarini belgilash va mazkur jarayonda xalq shevalariga asoslanish lozimligi XX asrning boshlaridayoq anglab yetilgan. Xususan, 1929-yil may oyida Samarqandda o'tkazilgan Til islohoti va imlo konferensiyasida imloni takomillashtirish bilan birga adabiy til leksik normalarini belgilash borasida ham bir qator takliflar berilgan, chunonchi, o'zbek xalq shevalarini o'rganish va shu asosda adabiy til leksikasini me'yorlashtirishga (va

shakllantirishga) harakat qilingan. Mazkur konferensiya qarorlarida sheva soʻzlarini adabiy tilga qabul qilish shartlari ham aniq koʻrsatib berilgan:

“4-Oʻzbek adabiy tilini Oʻzbekistondagi rayoʻnlarning har qaysisida boʻlgʻon har qanday shevadan olingʻon yangi soʻzlar va shakillar bilan boyitumumkin va lozimdur, faqat bu yangi soʻz va shakillarning quyidagi shartlarga muvofiq boʻlurlari matlubdir:

- 1) u soʻz va shakillar butun oʻzbek xalqi uchun tushinishli boʻlsa,
- 2) u soʻz va shakillar oʻzbek xalqining, shubhasiz, koʻpchiligiga tushinishli boʻlsa,
- 3) u soʻz va shakillar butun oʻzbek tili oʻsishining jarayonida tugʻ(il)ip, xalqqa tushinishli va tilning boyivi uchun zarur boʻlsalar” [12, 4].

Jadidlar va yetuk tilshunoslar tomonidan amalga oshirilgan saʼy-harakatlar natijasida oʻzbek xalq shevalarining umumiy lugʻat boyligi oʻzbek adabiy tili leksikasining oʻzagi sifatida barqarorlashdi. Albatta bu jarayonda ilm ahli bilan bir qatorda yozuvchi-ijodkorlarning, OAV xodimlarining ham oʻz oʻrni va xizmati borligini tan olish joiz. Shundan keyingi salkam bir asrlik davr mobaynida ham xalq shevalarining adabiy tildagi muayyan boʻshliqlarni toʻldirish imkoniyatlaridan samarali foydalanib kelinmoqda. Ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmida xalq shevalarini tadqiq etishga jiddiy kirishilgani natijasida koʻpgina soʻzlarning adabiy til leksikasi uchun ahamiyatli ekanligi, ularni ham sekinlik bilan adabiy til leksik tarkibiga kiritib borish kerakligi maʼlum boʻldi. Ayni vaziyatda oʻzbek adabiy tilining leksik meʼyorlarini tavsiflovchi izohli lugʻatning yaratilishi ham mazkur masalaning hal qilinishida muhim rol oʻynadi.

Adabiyotlar tahlili

Maʼlumki, “normativ lugʻat tuzish va unda adabiy til normalarini toʻgʻri belgilash uchun tilning butun leksik boyligi hamma manbalardan, shu jumladan, dialektlar va soʻzlashuv tilidan foydalanib tanlanishi va puxta oʻrganilishi kerak” [13, 11]. Yaʼni, lugʻatga kiritilayotgan soʻz xalq shevalarida faol, dialektal meʼyor darajasidan oshgan, muhim ahamiyatli va adabiy til qonuniyatlariga mos keladigan

birlik bo'lishi kerak. Aksincha, bunday xususiyatlarga ega bo'lmagan so'zlarni izohli lug'atga kiritish kamida lug'atning normativ (me'yoriy)ligiga rahna soladi.

Shevalar leksikasini o'rganish jarayonida juda ko'p dialektal so'zlar aniqlanadiki, bunda mazkur so'zlarning sheva ahli tomonidan qo'llanilishi hamda uning nutqiy vaziyatlarda faol ishlatilishi dialektologga juda yorqin va ahamiyatli tuyuladiki, natijada shevashunos tadqiqotchi bunday so'zlarni adabiylashtirish, me'yoriy lug'atlarga kiritish zarurligi haqida o'z xulosa va takliflarini berishga harakat qiladi. Ammo, dialektologlar tomonidan tavsiya etiladigan dialektal so'zlarning adabiylashuvi ham oson kechmaydi. Zero, har qanday dialektal so'z sheva ahlining muayyan lisoniy ehtiyoji natijasida paydo bo'lgan esa-da, adabiy til leksikasi uchun u qadar katta ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin.

Shevashunoslikka oid tadqiqotlarda va lug'atlarda qirq mingga yaqin dialektal so'z mavjudligi qayd etiladi [6, 18]. Turli dialektologik tadqiqotlarda adabiy til uchun muhim bo'lgan ko'plab shevaga xos so'zlar tavsiya etilsa-da, ularning juda kam qismigina adabiylashishga "muvaffaq" bo'ladi. Chunki tavsiya etilgan so'zlarning aksariyati adabiy tildagi muayyan so'zga ma'nodosh (muqobil) bo'lgani bois me'yoriy lug'atlardan joy ololmaydi.

O'zbek adabiy tilining leksik me'yorlarini tavsiflovchi izohli lug'atlarga kiritilgan sheva so'zlarining miqdori va miqyosini tahlil qilib bu boradagi tavsiyalarning qanchalik joriylanganligini baholash mumkin. R.Jomonovning hisob-kitobiga ko'ra 1981-yilda nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da 715 ta sheva so'zi qayd etilgan [5, 54]. Albatta, bu o'rinda yana shuni esda saqlash kerakki, mazkur miqdor joriy nashrda *dial.* pometa bilan berilgan so'zlar miqdori bo'lib, bu ko'rsatkich mazkur izohli lug'atdagi kam tushunishli, kam qo'llaniluvchi so'zlarnigina qamrab oladi. Aniqki, lug'at tuzuvchilar mazkur so'zlarning hududiy xoslanganini yoki keng ommalashmaganini tushuntirish nuqtayi nazaridan ham ularni tegishli pometa bilan ajratib ko'rsatgan. Aslida esa mazkur nashrda juda ko'plab dialektal so'zlar o'sha davr leksik me'yorlari belgilanmagan bir pallada xuddi "avvaldan ma'lum" bo'lgan birliklar kabi izohli lug'atdan joy olgan. Bu esa o'sha davr taqozosi, boshqacha aytganda, milliy

tilning adabiy meyorlari ilmiy asosda belgilanayotgan va meyory lug‘atda ilk bor tavsiflanayotgan bir davri bo‘lganini ham esdan chiqarmaslik lozim.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati uchun dialektizmlardan so‘z tanlash prinsiplari va ularning berilishi” ni 1981-yilda nashr etilgan izohli lug‘at misolida tadqiq qilgan R. Jomonov mazkur lug‘atdagi dialektal so‘zlar miqdorini kam deb baholaydi [5, 142]. Ko‘p shevali o‘zbek tili uchun bunday fikr aytilishi albatta tabiiy hol. Zero, turli dialektlarda adabiy til leksikasini boyitishga munosib so‘zlar istalgancha topiladi va buni inkor etish ham mumkin emas. O‘z kuzatishlari natijasida olim dissertatsiya so‘ngida 500 dan ziyod shevaga xos so‘zni izohli lug‘atga kiritish uchun tavsiya etadi. 2006-2008-yillarda to‘ldirilgan va qayta nashr qilingan O‘TILga mazkur so‘zlardan *go‘mma* (152)[*sahifa qaqami qavsda ko‘rsatilmoqda*], *jo‘gi* (156), *ijikilamoq* (175), *iqtibos* (157), *kadi* (158), *kuliklash* (O‘TILda *kulliklash*) (160), *ko‘gan* (160), *ko‘ganlamoq* (160), *ko‘kay* (160), *ko‘lik* (161), *meng* (162), *mengzamoq* (162), *sermamoq* (168), *chakana* (“aholining kichik mollari suruvi” ma’nosida) (173), *cho‘lpi* (175), *shivit* (175), *shumqadam* (176), *qoruvli* (179), *havasak* (181) kabilar kiritilgan. Mazkur so‘zlar ichida *iqtibos*, *shumqadam*, *sollanmoq*, *meng* kabi adabiy tilga ancha oldin kirib kelgan va muayyan sabablar bilan 1981-yildagi nashrga kiritilmay qolgan so‘zlar ham bor. Mazkur so‘zlarning 2006-2008-yildagi nashrga kiritilishida *ijikilamoq*, *kadi*, *ko‘kay*, *ko‘lik*, *mengzamoq*, *sermamoq*, *ulgi*, *chakana*, *shivit*, *havasak* kabi so‘zlargagina shv. pometasi qo‘yilgan. qolgan so‘zlarning bunday pometa bilan “siylanmaganligi” ularning allaqachon adabiy til birligiga aylanganini ko‘rsatadi. Bu esa anglatadiki, turli nutqiy vaziyatlarda faol qo‘llanilgan sheva so‘zlarining ko‘p vaqt iste’molda bo‘lishi ularning ham adabiy me’yor darajasiga chiqishiga sabab bo‘ladi.

Ma’lumki, dialektal so‘zning “u yoki bu turi izohli lug‘atlarda beriladi degan so‘z, bunday so‘zlar adabiy tilda qo‘llanishga, ifoda vositasi bo‘la olishga loyiq degan ma’noni ham anglatadi”[5, 55]. Boshqacha aytganda, bunday e’tirof dialektal so‘zlarni adabiy til birligi sifatida qo‘llashga “ruxsat beradi”. Biroq lug‘atga kiritilgan dialektal so‘z zarur lisoniy qimmatga ega bo‘lmasa, faqat lug‘at

mulki bo'lib qolaveradi. Agar u tezda ommalashsa, nutq jarayonida faol qo'llansa, demak, uni adabiy til birligi deb qarash mumkin.

O'TILning 1981- va 2006-2008-yillarda nashr qilingan nusxalarini taqqoslab, uning keyingi nashri tarkibida dialektal so'zlar ulushi ortganini ko'rish mumkin (bizning hisob-kitobimiz bo'yicha keyingi nashrdagi O'TILda 1177 ta shevaga xos so'z qayd etilgan; mazkur miqdor oldingi nashrdagidan 1,6 barobar ko'proq). Izohli lug'atning 2023-yilda chop qilingan to'ldirilgan va qayta ishlangan nashrida ham shevaga xos so'zlarga keng o'rin ajratilgan. Xususan, 2-jildning o'zida 319 ta shevaga xos so'z tavsiflangan bo'lib, bu so'zlarning aksariyati adabiy tilda muayyan nomlovchisiga ega bo'lmagan tushunchalarni tavsiflash nuqtayi nazaridan izohli lug'atga kiritilgan.

Shu narsa aniqki, "eng mukammal tuzilgan lug'atlar ham barcha so'zlarni qamrab ololmaydi. Chunki tilning asta-sekin rivojlanish jarayonida uning lug'at sostavi ham takomillashib boradi"[10, 11]. Vaqt deb atalmish beto'xtov jarayonda til leksikasi tinimsiz taraqqiy etadi. Shu bois bo'lsa kerak, til tirikligining, uning o'zgaruvchanligining asosiy ko'rsatkichi bo'lgan lug'at tarkibini o'z vaqtida tavsiflab borishga doim ehtiyoj sezilib turadi.

Adabiy til leksikasini sheva so'zlari bilan boyitishda dialektolog olimlardan Sh.Shoaabdurahmonovning xizmatlari beqiyos. Olimning o'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari munosabatiga bag'ishlangan tadqiqotlari bu boradagi boshqa tadqiqotchilarning ishlariga dasturulamal bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, turli o'zbek shevalari leksikasini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlarda ham Sh.Shoaabdurahmonovning tashabbuskorlik va rahbarlik roli bor.

Izohli lug'atlarga dialektal so'zlarni kiritish borasidagi tajribalariga nazar tashlasak, "umuman, adabiy tilning dialektal va so'zlashuv tili leksikasi hisobiga boyish protsessi nuqtayi nazaridan dialektal va so'zlashuv tiliga oid so'zlarni quyidagi uch qatlamga ajratish mumkin: 1) dialektlarga va so'zlashuv tiligagina xos bo'lib qoladigan so'zlar (masalan, innaykin, (adabiy tilda undan keyin), ja (adabiy tilda juda)); 2) adabiy tilga o'tish protsessidagi so'zlar; 3) adabiy tilga o'tgan so'zlar" [13, 11]. Mazkur tasnifdagi birinchi toifa so'zlar adabiylashishga

loyiq emas (zero ular qanchalik keng qo'llanishli bo'lmasin, adabiy me'yorlarga nomuvofiq, adabiy til birligining shevaviy ko'rinishidir). Uchinchi toifa esa adabiylashib bo'lgan so'zlar (demakki, ular me'yor darajasiga yetgan). Demak, shu ikki toifaning o'rtasidagi oraliq ikkinchi toifa, ya'ni adabiy tilga o'tish jarayonidagi (o'tishi mumkin bo'lgan) so'zlarni izohli lug'atlarga kiritish va adabiylashtirish ancha murakkab va ayni damda adabiy til leksikasi uchun foydali hisoblanadi.

Lug'atchilik tamoyillariga ko'ra "so'zlashuv tilidagi va dialektal so'zlardan lug'atga quyidagilar kiritiladi:

a) so'zlashuvda keng qo'llaniladigan va yozma adabiyotda ham ko'p uchraydigan so'zlar: *zap*, *rosa*, *paqqos*, *unaqa*, *shunaqangi*, *boplamoq*, *qotirmoq*;

b) adabiy tilda parallel qo'llanadigan sinonimik so'zlar: *narvon* – *shoti*, *so'ri* – *karovat* – *chorpoya* va shu kabilar;

v) yozma adabiyotda qayd etilmagan, ammo adabiy tilda paralleli bo'lmagan so'zlar: *yelvizak*, *oydin*, *chaptar*, *so'g'on* va shu kabilar;

g) ayrim joylargagina xos bo'lsa-da yozma adabiyotda uchraydigan (*tetapoya*, *adabiy tilak-chechak* va shu kabilar) va adabiy tilda paralleli bo'lmagan so'zlar: *negov*, *qaqas* (Farg'ona), *kamgak* (Toshkent) va shu kabilar" [13, 16]. Mazkur tasnifning "v" hamda "g" bandi bevosita adabiy til uchun ahamiyatli birlik bo'lgan so'zlarni nazarda tutadi. Aslida, bu tipli so'zlarning til leksikasini to'ldirishi va shu orqali tilning ifoda imkoniyatlarini oshirishi juda erta anglangan. Biroq bunday so'zlarni adabiylashtirish borasida lug'atchilik tajribalari maqtashga arzigulik emas. Aksincha, bu tipli so'zlarning adabiylashuvida so'z ustalari va OAVning tashabbuskorligi lug'atshunos va tilshunoslarnikidan samaraliroq kechgan. Buning asosiy sababi sifatida sheva so'zlarini adabiylashtirish imkonini beruvchi izohli lug'atning normativligini, uni tuzishda qat'iy talablarga amal qilinishini nazardan qochirmaslik kerak.

"Dialektlarga oid so'zlarning dialektizm ekanligi, odatda, adabiy tildagi yoki boshqa sheva, dialektlardagi so'zlarga qiyoslangan holdagina aniqlanadi" [6, 131]. Shuningdek, dialektal so'zlarni, asosan, O'TILdagi so'zlar bilan qiyoslash orqali

ularning adabiy til leksikasini to'ldirish imkoniyatiga ega yoki ega emasligini baholash mumkin. Zero, izohli lug'at lug'atning eng muhim va asosiy turi sifatida zarur leksik birliklarning adabiy tilda mavjudligi yoki yo'qligi haqida yetarlicha ma'lumot beradi [4, 12].

O'TILda, xususan, uning 2023-yilda chop etilgan nashrida o'zbek tilining hozirgi davrda keng iste'molda bo'lgan so'zlari to'liq qamrab olingan. O'zbek tili leksikasida keyingi yillarda "juda ko'p yangi so'zlar va terminlar yuzaga keldi. Ko'pgina so'zlarning ma'nosi o'zgardi, kengaydi, ayrim so'zlarning ma'nosi yanada aniqlashdi, o'zaro farqlandi. Bularning barchasi lug'atda o'z ifodasini topgan" [1, 9]. Mazkur manbada ko'rsatilishicha, "shevaga oid so'zlardan: 1) adabiy tilda parallel qo'llanadigan *karovat-so'ri-chorpoya* kabi so'zlar; 2) adabiy tilga mansub bo'lmasa ham, ko'pchilik shevalarda qo'llanadigan va yozma manbalarda ham uchraydigan *gurung, manglay, qo'noq* kabi so'zlar; 3) adabiy tilda varianti bo'lmagan, ma'lum bir yoki birdan ortiq shevada qo'llanadigan *yelvizak, yelvagay, archimoq, arna* kabi so'zlar" [1, 14] lug'atga bosh so'z sifatida olingan va ma'nosi izohlangan.

Natijalar

Kuzatishlar ko'rsatadiki, izohli lug'at uchun dialektal so'zlarni saralash jarayoni juda murakkab va u kuchli sinchkovlikni, ziyraklikni taqozo etadi. Shu bilan birga mazkur jarayonda amal qilish kerak bo'lgan yana shunday jihatlardan borki, bizningcha uni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. Dialektal so'zlarni O'TILga kiritishda aynan adabiy til va shevalar leksikasi qiyosida aniqlangan muhim dialektal so'zlarni, yana ham aniqroq aytganda, muqoyasa jarayonida adabiy til uchun lakunar birlik bo'lgan sheva so'zlarini tahlilga tortish kerak. Zero, mazkur muqoyasa natijasida adabiy til leksikasida lakuna sifatida baholangan o'rin (bo'shliq) hamda shu o'ringa munosib dialektal so'z bir vaqtda aniqlanadi. Bu esa qaralayotgan shevaga xos so'zning mazkur o'ringa ne chog'li munosib ekanligini tavsiflashga ham yordam beradi.

2. Adabiy til leksikasiga kiritilayotgan dialektal so'z adabiy til birliklarining aksar xususiyatlarini o'zida mujassamlashtira oladigan darajada imkoniyatli

bo'lishi kerak. Ya'ni, leksik tizimga kiradigan yangi so'z shu tizim xususiyatlarini o'zida namoyon etishi, boshqa elementlar bilan leksik-grammatik aloqaga kirisha olishi lozim[9, 97]. Ayni xususiyatlarni o'ziga mujassam eta olmagan shevaga xos so'zning adabiy til leksikasida "yashab" qolishi mushkul.

Shuningdek, mazkur dialektal so'zning adabiy norma darajasiga chiqishi uchun, avvalo, dialektal norma darajasiga yetgan, sheva ahlining muloqot jarayonida faol qo'llanayotgan, ko'p davrlardan buyon til (sheva) leksikasida mavjud bo'lgan, kundalik turmushda qo'llaniluvchi muhim tushunchiadabiy tilaydigan so'z bo'lishi lozim.

3. Shevaga xos so'z adabiy tilda unga muqobil so'z mavjud bo'lgan taqdirda til leksikasiga kiritilmasligi lozim. Masalan, shevalarda kuchli sovuq natijasida daraxt shoxlarida nam, havo zarralarining muzlashidan hosil bo'luvchi *qirovni* atash uchun qo'llanuvchi *sir* so'zi adabiy til birligi sifatida baholanmagan. Chunki bu tushunchani *bulduruq* so'zi ham ifodalay oladi. Demak, *sir* so'zini adabiy til leksikasiga kiritishga ehtiyoj yo'q.

Adabiy tilda muqobili mavjud bo'lmagan muhim ahamiyatli dialektal so'zni adabiy til leksikasiga olib kirish zarur. Zero, dialektal so'zning adabiy til lug'atlarida qayd etilishida, birincha navbatda, ularning til leksikasida muayyan mavqeni egallay olish-olmasligiga jiddiy e'tibor berish lozim [6, 16]. Masalan, aksar shevalarda qo'llaniluvchi *porimoq* [14, 217] so'zi biror narsa (odatda, yegulik)ning kishiga (tanaga) yaxshi ta'sir qilishi, xush yoqishini ifodalovchi so'z sifatida ishlatiladi. Adabiy tilda bu so'zning ma'nodoshi yoki muqobili yo'q. Bu esa mazkur so'zni til leksikasiga olib kirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

4. O'TILga kiritilayotgan dialektal so'z qo'llashga qulay, iloji boricha sof o'zbekcha va ayni damda keng ommalashishga imkoniyatli bo'lishi lozim. Ayniqsa, bu borada eski o'zbek tilida (yoki turkiy tilda) qo'llanilgan, sof turkona ohangga ega bo'lgan so'zlarga alohida imtiyoz berish juda to'g'ri yo'ldir. Bu orqali tilning sofliги ta'minlanishi barobarida o'zbek tilining turkiy tillar bilan uyg'unlashuvi ham bir oz kuchayadi.

O'zbekistonning turli hududlaridagi shevalarda qo'llaniluvchi *shuvot* so'zini

olib ko'raylik. *Shuvot* so'zi zarra hoida (tomchi emas!) yog'ayotgan yog'inni ifodalaydi [15, 201]. Sof turkiycha bu so'z qardosh tillarda ham mavjud.

Xuddi shu kabi supurilmagan, tozalanmagan, yig'ishtirilmagan joydagi kir, chang, chiqindi kabilarni nomlovchi *qo'qim* so'zi ham sof turkona va ayni damda o'zbek xalqining aksariyatiga tushunarli bo'lgan so'zlardan biridir. Bu so'zning unga yondosh tarzda qo'llaniluvchi *qo'qimoq* fe'li asosidan yasalganligi ham ko'pchilikka ma'lum. Bu esa mazkur xususiyatga ega bo'lgan so'zlarning hech ikkilanmasdan adabiy tilga olib kirish mumkinligini ko'rsatadi.

5. O'TILga kiritilayotgan dialektal so'z unga variantdosh va ekvivalent bo'lgan boshqa birlik (yoki o'zlashma)lardan qulayroq, tushunishliroq va imkoniyatliroq bo'lishi darkor. Umumxalq tilida *payi cho'zilmoq*, *muskuli lat yemoq* kabi bir necha so'z bilan ifodalanuvchi jarohatni nomlaydigan *toyishmoq* so'zi ana shunday xususiyatlarga ega. Bu so'z boshqa ekvivalentlarga nisbatan ancha qulayligi bilan ajralib turadi va bu uning adabiy tilga olib kirilishiga imkoniyat yaratadi. Xuddi shu kabi vaqtincha olingan narsalar ma'nosida qo'llaniluvchi *erati* so'zi *ijara*, *birovning narsasi* kabi birliklardan ancha qulay. Shuningdek, bu so'z qipchoq va o'g'uz shevalarida faol qo'llaniladi va ko'pchilikka tushunarli. Mazkur so'zda "pul to'lamasdan foydalanish" semasi mavjudligi uning *ijara* so'zidan jiddiy farqlanishini ham ko'rsatadi. Adabiy til uchun tanlanayotgan variantlarning har biri ana shunday muqoyasa jarayonlarida o'zlarining imkoniyatlarini to'laroq namoyon etadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ishlatiladigan va adabiy norma deb tan olinadigan so'zlar ham, aslida, ma'lum tanlanishlar natijasidir [3, 42]. Muayyan tushunchani ifodalaydigan bir necha variantlar orasidan eng munosibini tanlashda, imkon qadar, keng omma uchun tushunarli bo'lgan variantni tanlash ma'qulroq. Shuningdek, tanlash jarayonida so'zning adabiy normalarga muvofiq keluvchi shakli olinishi lozim [3, 42]. Zero, tanlangan so'zning adabiy til birligi darajasiga ko'tarilishi uning adabiy me'yorlarga muvofiq kela olishiga bog'liqdir.

O'zbekadabiy tilning shakllanish jarayonida ko'p dialektli o'zbek tilining barcha imkoniyatlaridan unumli foydalanilgan. Shuning natijasi o'laroq, adabiy

tilda bir tushunchani nomlovchi ma'nodosh so'zlar talaygina. Umumtil birliklari orasidan biror variantning me'yor sifatida tanlanishi ham murakkab jarayon. Ulardan foydalanish yoki foydalanishdan voz kechish tilning yaratuvchisi va iste'molchisi bo'lgan xalq hukmidadir. Muqobil variantlar orasidan tanlangan so'z qachonki til iste'molchilari uchun ma'qul kelsa (va undan keng foydalanish boshlansa), shundagina u faol qo'llaniluvchi til birligiga aylanishi mumkin.

6. O'TILga kiritilayotgan dialektal so'z ijtimoiy va lisoniy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Juda tor sohada qo'llaniluvchi, omma uchun yetarli darajada muhim bo'lmagan tushunchalarni nomlovchi so'zni tilda ommalashtirishga urinish yaramaydi. Xususan, ipak qurtining ipak o'ray boshlashini ifodalovchi *parish* so'zi u qadar katta ijtimoiy ahamiyatga ega emas. Garchi bu so'z muayyan jarayonni nomlasa-da, butun xalq uchun katta ahamiyat kasb etmaydi. Chunki ipakchilik bilan shug'ullanuvchi kishilar butun xalqning juda kichik ulush (qism)ini tashkil etadi.

7. O'TILga kiritilayotgan dialektal so'zni tanlashda ularning aytishga qulay va kam bo'g'inli bo'lishiga alohida diqqat qaratish zarur. B.Bafojev haqli ta'kidlaganidek, tilda ma'lum tushunchani ifoda etuvchi sinonimik variantlarning me'yor sifatida tanlanishida ularning bo'g'in tuzilishi ham alohida ahamiyatga ega bo'ladi [2, 32].

Shevalarda qo'llaniluvchi *jetalatma* "birovning gapiga yuradigan, o'z fikriga ega bo'lmagan" [11, 358], *xamsizlantirmoq* "sug'urtalash" [14, 274] kabi ko'p bo'g'inli so'zlar nutqiy energiya tejamkorligiga ham salbiy ta'sir etishi aniq. Zero, "til kam quvvat sarflanadigan variantlarga intiladi" [7, 7].

Ma'lumki, o'z (turkiy) qatlam so'zlarining aksariyati bir bo'g'inli so'zlardan iborat. Hozirgi o'zbek adabiy tili ham o'zining ilk va mumtoz shakli bo'lgan turkiy tilning mazkur xususiyatlarini ma'lum darajada saqlashga intiladi. Bu esa adabiy til leksikasiga munosib ko'rilgan dialektal so'zning ham qisqa va kam bo'g'inli bo'lishini taqozo qiladi. Bu kabi jihatlarga e'tibor qaratish va O'TILni zaruriy va ahamiyatli dialektal so'zlar bilan boyitib borish til sofligini va xalqchilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Umuman, til leksikasining ichki manbalar hisobiga boyishida xalq shevalarining ahamiyati beqiyos. Aslida, adabiy til va shevalar leksikasining farqlanishi adabiy tilning umumiylik, me'yoriylik, sayqallanganlik, saralanganlik xususiyatlari bilan bog'liq. Shevalarda xalq tilining barcha imkoniyatlari reallashadi, zarur va kerakli tushunchalar o'z nomiga ega bo'ladi. Adabiy til ayni shu xususiyatlar sabab shevalardan oziqlanadi. Zero, adabiy til tilning barqaror va me'yoriy ko'rinishi bo'lsa-da, millat lisoniy-nutqiy ehtiyojlariga moslashishi uchun shevalar leksikasidagi zarur so'zlar bilan muntazam boyitilishi lozim. Mazkur jarayonning maqsadga muvofiq joriylanishida O'TILga dialektal so'zlarning kiritilishi muayyan ahamiyatga ega. Yuqorida qayd etilgan jihatlarga ham e'tibor qaratish bu jarayonning tabiiy va tadrijiy kechishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildli. I jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 964 b.
2. Bafojev B. Navoiy asarlari tilida so'z varianti va adabiy norma // O'zbek tili va adabiyoti, 1988. – №1. – B. 32.
3. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi (adabiy normaning shakllanishi va yashash qonuniyatlari). – T., 1999. – B. 42.
4. Гак В. О. О некоторых закономерностях развития лексикографии (учебная и общая лексикография в истерическом аспекте) // Актуальные проблемы учебной лексикографии. М., 1977. – С. 12
5. Jomonov R. O'zbek tilining izohli lug'ati uchun dialektizmlardan so'z tanlash prinsiplari va ularning berilishi: Filol. fanlari nomzodi... dis. – T., 1991. – 203 b.
6. Ishayev A. O'zbek dialektal leksikografiyasi. – T.: Fan, 1990. – B. 18.
7. Mengliyev B. "Davlat tili haqida"gi Qonun va adabiy nutq me'yorlari // O'zbek tili va adabiyoti, 2016. – №5. – B. 7.

8. Оруджев А.А. Теоретическое обоснование к “Толковому словарю азербайджанского языка”: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Баку, 1962. – С.16.
9. Сат Ш. Ч. Формирование и развитие тубинского национального литературного языка. – Кызыл: Тувкнигоиздат, 1973. – С. 97.
10. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – T.: O‘qituvchi, 1981. – B. 11.
11. To‘ychiboyev B., Qashqirli Q. Zominning til qomusi. – T.: Akademnashr, 2012. – 400 b.
12. O‘zbek adabiy tili to‘g‘risidagi qaror. Manba: “Alanga” jurnali, 1929- yil, №5. – B. 4.
13. O‘zbek tilining izohli lug‘atini tuzish uchun qo‘llanma. – T.: Fan, 1964. – B. 11.
14. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati. – T.: Fan, 1971. – 409 b.
15. Uzoqov H. O‘zbek tilining Janubiy Farg‘ona shevalari (fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari): Filol. fanlari nomzodi... dis. – T., 1965. – B. 201.